



## O'RIKNING YANGI "SALOVOT" NAVI KO'CHATLARINI INTENSIV USULIDA KO'PAYTIRISH

**Sultanov Sirojiddin Nuraliyevich**<sup>1</sup>

**Jurayev Erkin Baxtiyorovich**<sup>2</sup>

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti<sup>1</sup>

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti<sup>2</sup>

[sirojiddin\\_sultanov@tues.uz](mailto:sirojiddin_sultanov@tues.uz). <https://orcid.org/0009-0009-3441-2605>.

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyati sharoitida o'rikning "Salovot" navi ko'chatlarini intensiv kurtak payvand usulida ko'paytirishning samarali agrotexnik asoslarini aniqlashga bag'ishlangan. Tadqiqotlar davomida kurtak payvand qilish muddati, usullari va foydalanilgan materiallarning (polietilen plyonka, bog'lash vositalari, qalamcha tayyorlash usullari) ta'siri o'rganildi.

Shuningdek, kurtakning joylashtirilish yo'nalishi (janub yoki shimol tomonga) uning yashab ketish ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Tadqiqot davomida o'rik payvandtaglari kuzgi sharoitda yaxshi ildiz otgani va bahorda bir tekis o'sish ko'rsatgani ham aniqlangan. Olingan natijalar "Salovot" navi o'riklarini mahalliy sharoitda ko'paytirish texnologiyasini takomillashtirish hamda ko'chatzorlar unumdorligini oshirishga xizmat qilishi ma'lum bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** kurtak payvand, payvandtag, qalamcha, plyonka, ko'chat yetishtirish, payvandlash texnologiyasi, agrotexnik tadbirlar.

**Kirish.** O'zbekistonda meva ko'chatlari danagidan ko'paytirilganda kelgusida hosilga kirgan meva daraxtlari o'zining dastlabki biologik xususiyatlarini saqlamaydi, yovvoyilashib ketadi. Yovvoyilashgan meva daraxtlarini ko'plab tikon bosadi, mevalari mayda, shirasiz, taxir va mevasi quritilganda quruq mahsuloti juda oz bo'ladi. Ko'chat kurtak payvand qilib yetishtirilganda qalamcha qaysi meva daraxtidan olib payvand qilingan bo'lsa, payvand qilingan ko'zdan xuddi o'sha mevaning o'zi yetishadi. Kurtak payvand orqali ko'chat yetishtirilganida dastlabki mevaning biologik xususiyatlari to'liq saqlanib qoladi. Ko'chatchilik xo'jaliklarida ko'chat asosan kurtak payvand qilish yo'li bilan yetishtiriladi. O'rik ko'chatlarini ko'paytirishda kurtak payvand asosan avgust oyida va sentabrning boshida o'tkazilib, ikki-uch marta sug'orilib, o'z vaqtida o'g'itlab turilganda payvand qilingan kurtaklar yaxshi tutib ketadi va kelgusida gektaridan 25-30 ming donagacha bir yillik ko'chat olish imkoni beradi.



**Tadqiqot uslublari.** Tadqiqot “Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi” (Buriyev X.Ch., va boshqa., 2014), bir yillik novdani o‘rish dinamikasi В.Л.Витковский (1979), “Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур” (1999) kabi uslub va qo‘llanmalar asosida olib borildi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot vaqtida payvandtag ko‘chatlar kuzda ona tuplardan ajratib olinib, tayyorlangan yerga ketma-ket ekildi, ularning ildiz tizimida kallus paydo bo‘lib, payvandtaglar yerda juda yaxshi joylashib, bahor boshlanishi bilan kurtaklar bir tekis o‘sa boshlashi o‘rganildi. Kuzda yer betiga yaqin joylashgan pakana payvandtaglar ildizining sovuq urmasligi hamda yerda namni saqlash maqsadida ekilgan payvandtaglar atrofiga 1-2 sm qalinlikda yaxshi chirigan go‘ng yoki daraxt qipig‘i tashlab qo‘yilganida yaxshi natijalarga berishi tajribalarda ma‘lum bo‘ldi.

Yozda kurtak payvand qilish jarayonida qalamchalar tanlangan daraxtlardan ketma-ket olib tayyorlab chiqildi. Qalamcha tayyorlanadigan “Salovot” navi bog‘laridan daraxtlar orasidan saralangan, yana ham serhosil, kasallanmagan, boshqa o‘rik navlar bilan aralashib ketmagan o‘simliklar tanlab olindi. Olingan qalamchalar bog‘-bog‘ qilib boylab qo‘yildi, har bir boylamga olingan o‘rik daraxtining va qalamcha tayyorlangan kun qora qalamda yozib boylab qo‘yildi. Tajriba davomida qalamchalarni boylashda yumshoq sim yoki novdalardan foydalanildi. Ko‘chatzorga keltirilgan qalamchalar payvand qilinishidan oldin salqin joyda saqlanib, qalamchalarni ikki-uch kundan ko‘p tutib bo‘lmasligini inobatga olib, “Salovot” navi ertapishar o‘rik bo‘lganligi uchun qolgan navlarga nisbatan ertaroq payvand qilish ishlari amalga oshirildi. Kurtak payvandlangach 10-12 kun ichida ularning tutgan-tutmaganligi tajriba maydonida tekshirib turildi. Tajribada chipta bilan boylangan kurtak payvandlarni kuchsiz shamol ta‘sirida payvandlangan joyning ustki qismi sinib ketishini inobatga olgan holda, payvand qilingan tomonni qarama-qarshi tomonidan o‘tkir bog‘ pichog‘ida bo‘shatib chiqildi. Polietilen plyonkasi bilan boylangan payvandtaglarni esa besh-olti kun kechroq qirqish ishlari amalga oshirildi. Payvand ariqlar yo‘nalishi bo‘yicha solib, shimoli-g‘arb tomonga joylashtirilganda shamol kam ta‘sir etishi tajriba davomida aniqlandi, plyonkalar kurtak payvand qilishda qo‘llanilganida juda yaxshi natija beradi. Iqtisodiy tomonlama ham juda qulay bo‘lib, bir kilogramm plyonka bilan 3000-3500 donagacha uzunligi 25-30 sm, kengligi 1,0-1,2 sm tasmalar tayyorlab kurtak payvandda foydalanish mumkin, yana quyosh nurida cho‘ziladigan plyonkalar sekin-asta darz ketgandek parchalanadi va payvandtag tanasini qismasligi o‘rganildi.

“Salovot” navini payvandlash jarayonida kurtak janub tomonga joylashtirilganda, quyosh nuri ta‘sirida ko‘karish foizi ancha kamaydi. Payvand kurtak ariqlarning yon tomoniga joylashtirilganida, ko‘plab kurtaklar zararlanishi tajribada aniqlandi. Tajriba maydonida



payvand qilish davomida bog'lovchi niholchani yerdan 4-5 sm balandlikda payvand pichog'i bilan "T" simon shaklda chizib, pichoqning orqa tomoni bilan po'stlog'ini bir oz ochib, 2-2,5 sm uzunlikdagi kurtak novdadan kesib olinib "T" shakli ichiga joylashtirildi, so'ngra ikkita ko'rsatkich barmoq bilan po'stlog'ining ustidan yuritilib, zichlandi. Kurtak olinishida iloji boricha yupqa kesish ishlari amalga oshirildi. Kurtak payvandtagga joylashtirilgandan so'ng polietilen plyonkani o'ng qo'li bilan o'rab, chap qo'li bilan bosib turgan holda, kurtakni siqib o'rab qo'yiladi va kurtak bog'lanayotganda ko'z ko'rinib turishi muhim hisoblanadi.

Payvandlash ishlari yakunlangach payvandlangan ko'chatlar yana bir marta sug'orildi. Oradan 10-12 kun o'tgach, ularning tutgan-tutmaganligi boshlang'ich payvandlangan o'simliklardan boshlab tekshirildi. Tutgan kurtakning barg bandi qo'l tegizish bilan yerga tushib ketadi va tutgan kurtak yashilroq bo'ladi. Tutgan kurtaklarning qarama-qarshi tomonidan asta sekinlik bilan polietilen plyonka bo'shatib chiqildi. Tutmagan kurtaklarning qarama-qarshi tomoniga qayta kurtak payvandlanib tutib ketgach, bog'ichi yuqoridagi singari bo'shatib qo'yildi. Sentabrning birinchi yarmida kun avgust oyiga nisbatan sovib qolishi natijasida payvandust bilan payvandtag tez birikib ketmasligi tajribada o'rganildi.

**Xulosa.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Surxondaryo viloyati sharoitida "Salovot" o'rik navini kurtak payvand usulida ko'paytirish yuqori samaradorlikka ega. Tajriba natijalari plyonka yordamida bajarilgan payvandlash usuli nafaqat iqtisodiy jihatdan qulay, balki biologik jihatdan ham afzal ekanini ko'rsatdi. Bir kilogramm plyonka yordamida 3000-3500 dona ko'chat tayyorlash mumkinligi aniqlanib, bu ko'chatzor unumdorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kurtakning joylashtirilish yo'nalishi va payvand vaqti ham natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi: janubiy tomonga yo'naltirilgan kurtaklarda quyosh nuri ta'sirida yashab ketish ko'rsatkichi kamaygan. Eng yuqori tutish foizi avgust oyida o'tkazilgan kurtak payvandlarda kuzatildi. Shuningdek, payvandlangan ko'chatlar kuzda to'g'ri parvarish qilinganda, ildiz tizimi yaxshi rivojlanib, bahor faslida bir tekis o'sish qayd etildi. Ushbu tadqiqot natijalari "Salovot" navi o'riklarini ko'paytirish texnologiyasini takomillashtirish, yuqori sifatli ko'chat materiallari olish va hududda o'rikchilik sohasini rivojlantirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar

1. Buriyev X.Ch., Jurayev E.B. "Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi". Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2014. – 54 b.
2. Buriev X.Ch., Baymetov K., Jo'rayev R.J. Meva ekinlari seleksiyasi va navshunosligi (darslik). Toshkent: "Mehnat", 2001, 115 bet.
3. Buriev X.Ch. Havaskor bog'bonga qo'llanma. Toshkent: "Sharq", 2002, 207 bet.



4. Sultanov S.N., Jurayev E.B. Apricot growing and selection of grafts. – Journal of Agriculture & Horticulture Zenodo, 2024. – Т.4, Вып.10, сс. 61–63.

5. Qayimov A., Bobojonov A.R. Yer resurslarini boshqarish va unumli foydalanishda mevali ekinlarning xilma-xil navlarini joylashtirish. Toshkent: “Innovatsion rivojlanish”, 2020, 74 bet.

6. Витковский В.Л. Плодовые растения мира. – СПб.: Издательство «Лань», 2003. – 592 с.

7. Rajametov Sh., Normuratov I., Adilov X., Janakova D., Nomozov I. Meva, rezavor meva va tok ko‘chatzorlarini tashkil etish (o‘quv qo‘llanma). Baktria Press, Toshkent, 2018, 100 bet.

8. Ковалев Н.В. Абрикос. М., 1963. -С 288.

9. Костина К.Ф. Абрикос. ВАСХНИЛ, М., -Л., 1936. - С 292.